

UDK: 616.211-002.153-085.849.19

FOTODINAMIK TERAPIYANING SURUNKALI YIRINGLI O'RTA OTITNI DAVOLASHDAGI SAMARADORLIGI

O'ktamov Ibrat G'ayratovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti

uktamovibrat19@gmail.com

Kirish. Fotodinamik terapiya (FDT) – fotosensibilizator, yorug'lik manbai va kislorod ishtirokida ishlaydigan innovatsion davolash usuli bo'lib, bakteriya va zamburug'larga qarshi samarali ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda FDT o'rta quloq infeksiyalarida, xususan surunkali yiringli o'rta otitda qo'llanilmoqda.

Tadqiqot maqsadi-FDTning klinik va mikrobiologik samaradorligini an'anaviy davolash bilan taqqoslashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqotga jami 98 nafar SYO'O bemor jalb etildi va ularni randomizatsiya yordamida ikki guruhga bo'ldi: an'anaviy konservativ davolash guruhi (antibiotiklar, mahalliy antiseptiklar, fizioterapiya) va FDT qo'llanilgan guruh (Metilen ko'ki fotosensibilizatori bilan bir necha seans). Klinik simptomlar (og'riq, ajralma miqdori, eshitish funksiyasi) va mikrobiologik natijalar davolashdan oldin va keyin baholandi.

Natijalar. FDT guruhi an'anaviy guruhga nisbatan klinik simptomlarning tezroq regressiyasini ko'rsatdi: yiringli ajralmalar miqdori va og'riq tez kamaydi ($p < 0.05$). Mikrobiologik tekshiruvlarda FDT qo'llangan bemorlarda patogen mikroflora o'sishi sezilarli darajada kamaygani yoki yo'qolgani qayd etildi. Eshitish funksiyasida ham yaxshilanish kuzatildi, ayniqsa ertalabki davrlarda shovqin bilan bog'liq simptomlar pasaygan.

Muhokama. FDT antimikrob ta'sirining mexanizmi fotosensibilizatorning yorug'lik ostida faol kislorod shakllarini hosil qilib, patogen hujayra membranalarini

buzishi va ularni nobud qilishi bilan izohlanadi. Bu usul antibiotiklar bilan birga yoki ularning o'rnida qo'llanilishi mumkin, ayniqsa antibiotiklarga chidamli stammlar mavjud bo'lgan hollarda. FDTning nojo'ya ta'sirlari odatda minimal bo'lib, mahalliy bezovtalik yoki qisqa muddatli pigmentatsiya bilan cheklanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari FDTni SYO'Oni davolashda samarali va xavfsiz metoda ekanini ko'rsatdi. Klinika amaliyotida FDTni kompleks davolash protokollariga kiritish bemorlar uchun ancha foydali bo'lishi mumkin. Kelgusida FDTni turli fotosensibilizatorlar bilan qo'llash, dozalanish va seanslar sonini optimallashtirish bo'yicha klinik tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.